



KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TA'LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLANISHI

Arzikulova S.F.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
Qarshi davlat universiteti professori p.f.d. Sh.O' Nurillayeva taqrizi asosida*

Tayanch so'zlar: ta'lim-tarbiya, ta'lim,,kreativlik, faoliyat, muloqot, pedagog.

Ключевые слова: воспитание, воспитание, творчество, деятельность, общение, педагог.

Key words: education, education, creativity, activity, communication, pedagogue.

Kirish.Hozirda jahon ta'lim tizimida individuallashtirish va tabaqalashtirish tushunchalari keng ko'lamda tatbiq etilmoqda. Bunday yondashuv o'zbek xalqi ta'lim tizimida asrlar davomida mavjud bo'lgan. O'tmishda maktabxonalar ayniqsa, madrasalarda ta'lim olu vchilarga alohida yondashilgan holda, ularning qiziqishlari va intilishlarini hisobga olib ta'lim-tarbiya berilgan. Har bir ta'lim oluvchining muayyan mavzuni bilish imkoniyatlari va o'zlashtirish darajalari aniqlangandan keyingina unga navbatdagi topshiriq berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Ta'limni individuallashtirish g'oyasi pedagogik bilimlarni shakllantirishning umumiy ilmiy mantig'ida mos ravishda rivojlanganligi I.L.Chernyakova tomonidan o'rganilgan [chern]. Uning izlanishlarini tahlillash va umumlashtirish asnosida individuallashtirish g'oyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini quyidagicha pog'onalash mumkin - nazariyagacha bo'lgan bosqich – falsafiy bilimlar doirasida inson individualligini tushunishning shakllanishi bilan ifodalanadi; - klassik ratsionallik bosqichi – o'qitishning yetakchi tamoyillaridan biri sifatida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olinishi bilan ifodalanadi;

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Ta'limni individuallashtirish va individual yondashuvning shakllanish jarayonlarini o'rganishga doir bir qator tarixiy-pedagogik tadqiqotlar olib

borilgan. Jumladan, Z.A.Kargina, N.V.Gerdo, M.V.Klarin [ilinsim], K.Ye. Sumnitelniy, I.L.Chernyakova, L.S.Slavina, Ye.S.Rabunskiy, I.E.Unt, I.M.Cheredov, I.A.Zimnyaya, V.A.Slobodchikov, Ye.I.Isayev, A.P.Tryapisina, A.V.Xutorskoy va yana bir qator olimlar tomonidan individuallashtirishning tarixiy rivojlanish bosqichlari, turli mamlakatlarda shakllanish davrlari, ijtimoiy madaniy ta'sir holatlari, xususiyatlari hamda modellari tadqiq qilingan. Yuqorida ko'rsatilgan tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, xulosalari, ilgari surgan farazlari tahlili asosida individual ta'lim g'oyasi shakllanishini muammoli-xronologik usulda bayon qilamiz, chunki bu yondashuv rivojlanish jarayonini ketma-ket, tartiblashgan holda ko'rib chiqishga sharoit yaratadi.

Ma'lumki, Qadimgi Sharq mamlakatlari pedagogik tafakkurning vatani hisoblanadi. Bunday qarashni ta'limga individual yondashuv g'oyalari ham bog'lash mumkin. Chunki, tarixiy manbalarga ko'ra eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklar o'rtalarida Hindistonda ustoz-shogirdlik g'oyasi, ya'ni individual yondashuv mavjud bo'lgan. Bunday munosabatlar Qadimgi Sharqning boshqa mamlakatlarida ham ustuvorlik kasb etgan. Ularda ta'lim individual bo'lib, guruhda turli yoshdagi va har xil tayyorgarlik darajasiga ega talabalar bo'lishiga qaramay, jarayonning boshlanishidayoq har birining qobiliyati, ishtiyoqi, mehnatga munosabati, moddiy imkoniyatlari inobatga olingan. O'qituvchilarga ham shogirdlarini o'z farzandiday ardoqlash, ularni bilimni yashirmaslik, ma'nau va jismonan kamol toptirish talabi qo'yilgan. Qadimgi Xitoy falsafasida ilgari surilgan ta'lim me'yorlari va tamoyillari ham o'quvchiga individual yondashuvning muhimligiga katta ahamiyat qaratilganligiga ishora qiladi. B.M.Bim-Bad mazkur g'oyalarni Konfutsiy ta'limotiga bog'laydi hamda o'qituvchiga yuqori talablar qo'yilganligi, o'zini doimiy barkamollashtirib borgan, "donolikni anglash"ga erishgan hamda muayyan qobiliyatlarga ega bo'lgan insongina unga loyiqligi kabi talablar mavjudligi bilan asoslaydi. Rus olimasi T.V.Burlakovaning ko'rsatishicha "individuallashtirish" atamasi antik davr faylasuflari tomonidan qo'llanilgan. Tushuncha dastlab Levkipp va Demokritning asarlarida borliqni falsafiy tushunishning asosi sifatida qaralgan. Ularning fikricha individuallashtirish muammosini obyektiv dunyo va makon bilan bog'liq holda ko'rib chiqish va inson shaxsini uning tarkibiy qismi sifatida qarash lozim. Arastu shaxsni borliqni bir qismi sifatida belgilab, individuallashtirish tamoyili g'oyalarga emas, balki materiyaning o'ziga asoslanadi, u amorf va passiv bo'lib, faqat individual narsalar orqali o'zining aniq haqiqatini topa oladi, degan nuqtayi nazarini bildiradi. Aflotun esa, undan farqli ravishda borliqning o'rnini mutlaqlashtiradi va narsalar o'zining individualligi tufayli emas, balki ularning empirik mavjudligiga ega bo'ladi deb hisoblagan. Shu bilan birgalikda o'qitishda "kasb erkinligi (shaxsiy



moyilliklar)ʻni taʻminlash, oʻquvchilarni rivojlantirish, taʻlim modellarini passiv idrok etishdan koʻra mustaqil yechimlarni faol izlashga yoʻnaltirish zarurligini ham qayd etadi. Suqrot taʻlim inson va uning ruhi haqidagi bilimdan kelib chiqishi yoki asoslanishi kerakligini taʻkidlagan. U har bir oʻquvchini shaxsi oʻz-oʻzini axloqan takomillashtirishga bogʻliq ravishda taʻlim insonni kamolotga olib keladigan, ichki tuygʻusiga asoslangan, bilimlarini qalban qayta ishlashga yoʻnaltirilgan jarayon deb hisoblaydi.

Tahlil va natijalar. Oʻquv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishga oid turlicha yondashuv larning mavjudligiga qaramasdan, mutaxassislar quyidagi talqinga koʻproq moyillik bildiradilar: 1) Taʻlimni individuallashtirish – bu oʻquv jarayonini tashkil etish, uning yoʻllari, usullari, oʻqitish maromini tanlashda oʻquvchilarning oʻziga xosligi, ularning rivojlanganlik darajasi va oʻqish layoqatini hisobga olish demakdir. 2) Oʻquv jarayonini tabaqalashtirish – oʻquv jarayonini tashkil etishda oʻquvchilarni muayyan oʻziga xos jihatlariga koʻra alohida oʻqitish imkonini beruvchi guruhlarga ajratish demakdir. Oʻzbek xalqining tarixiy tajribalarini oʻrganish natijalari shuni koʻrsatmoqdaki, oʻqitishning jamoaviy shaklidan koʻra oʻquv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish koʻp jihatdan samaralidir. Shu bilan bir qatorda, oʻquv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish boʻyicha xorijiy pedagoglarning nazariy yondashuvlari mavjud va ular alohida ahamiyatga molik. Jumladan, AQSh taʻlim tizimida qoʻllaniladigan barcha pedagogik shakl va metodlar oʻquv jarayoniga oʻquvchilarning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tatbiq etilmoqda. Oʻquv jarayonini individuallashtirishning bir qator strategiyalari mavjud. Jumladan: – oʻqitishga bogʻliq boʻlmagan holda eng kam sonli oʻquvchilardan boshlab butun guruh aʻzolarining oʻziga xosliklarini hisobga olish; – taʻlimning turli variantlarini ishlab chiqish, jumladan, oʻquvchilarga muayyan mavzuni oʻrgatish maromi, maqsadlari, metodlari, oʻquv materiallari, talab etilgan oʻzlashtirilganlik darajalari kabilarni koʻp variantlarda taqdim etish; – taʻlimda individuallashtirishni qoʻllash oʻrgatiladigan barcha oʻquv predmetlari, ularning muayyan qismlari, oʻquv kurslari, oʻquv materiallari va alohida oʻquvchilarga nisbatan amalga oshiriladi. Buning natijasida oʻquvchilarning umumiy belgilariga asoslangan holda turli guruhlarni tashkil etish mumkin. Avstriyada oʻquvchilarning bilish faoliyatini individual rivojlantirishga asoslangan dasturlarda oʻquvchilarning oʻziga xos layoqatlariga asoslangan holda ularning mustaqil ishlarini takomillashtirishni nazarda tutadilar. Individuallik oʻquvchilarning sinfdagi mustaqil ishlari, topshiriqlar, individuallashtirish esa, oʻquv topshirigʻi har bir oʻquvchi uchun uning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida-alohida tanlanganda vujudga keladi. Angliya maktablarida oʻquv jarayoni tabaqalashtirish

tamoyili asosida tashkil etilgan. O'quvchilar boshlang'ich ta'lim bosqichini o'tagandan keyin uch xil yo'nalishdagi maktablarga bo'linadilar. Ular: grammatik yo'nalishdagi maktablar, zamonaviy o'rta maktablar va texnika sohasidagi o'rta maktablardir. Bu maktablarning har biriga o'quvchilar aqliy qobiliyatlari va umumiy rivojlanish darajalariga ko'ra taqsimlanadilar. Bugungi kunga kelib ta'lim jarayoniga bo'lga yondashuvlar tubdan o'zgarimoqda. O'quv jarayoniga individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab amalga oshirilmoqda. Ta'lim bosqichlarining har birida o'quv jarayonini individuallashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u o'ta murakkab pedagogik jarayon sifatida tavsiflanadi. Angliya maktablarida ikki turdagi individuallashtirilgan o'quv jarayoni amal qiladi: – o'quvchilarning turli guruhlariga ta'lim berish, bunda ularning layoqatiga bog'liq holda turli darajaga ega bo'lgan turlicha bilimlar taqdim etiladi; – bir qator o'quv predmetlari va ta'lim sohalaridan chuqurlashtirilgan bilim berish.

Umuman olganda, o'quv jarayonini individuallashtirishning mazkur shakllari qulay bo'lishi bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklarga ham ega. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda quyidagi qulayliklar mavjudligi kuzatildi: o'qitish jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xosligini hisobga olish imkoniyati tug'iladi; o'quvchilarning o'quv-biluv jarayoniga bo'lgan qiziqishlari ortadi; mustaqil ishlarning ahamiyati oshadi; individual topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalari rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF5712-sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmonining qabul qilinishi va u asosida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qitish metodikasini takomil lashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etishni taqozo etmoqda. Pedagogika ensiklopediyasida "Individual yondashuv metodi – (lot. individuum – bo'linmas) pedagogik jarayonni o'quvchining individual o'ziga xos jihatlari (mijozi, xarakteri, qobiliyati, moyilligi va boshqalar)ni e'tiborga olgan holda amalga oshirish metodi" sifatida talqin etiladi.

Xulosa va takliflar. Pedagogika nazariyasi va tarixiga doir o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili ta'limda individuallashtirish konsepsiyasining qadimgi, antik, o'rta va hozirgi davrdagi tadrijiy taraqqiyotini tushunish orqali uning rivojlanish trayektoriyasini aniqlashga imkon berdi. Shuningdek, zamonaviy sharoitlarda ta'limni individuallashtirishning rivojlanishiga doir tahlillarni umumlashtirish, konsepsiyasini takomillashtirish, uning tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirish mavjud vazifalarga uchun yetarlicha ilmiy-nazariy bilan asoslar paydo bo'lganligini ham qayd etish joiz bo'ladi. Shu birgalikda ta'kidlashimiz



mumkinki, rivojlangan xorijiy davlatlar pedagogikasidagi individuallashtirish sohasiga doir bilimlarning sezilarli darajada kengayib borayotganligi, yangi tajribalar bilan boyitilayotganligi, ta'limning fundamental tushunchasi sifatida qaralayotganligi hamda barqarorlikka ega ekanligi natijasida erishilgan muvaffaqiyatlarni milliy pedagogikamizga singdirish mamlakatimizda ta'lim maqsadlariga erishish va sifatini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild./ tuzuvchilar: Jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015, 368-b.
3. Anyon, Yolanda; Nicotera, Nicole; Veeh, Christopher A. Contextual Influences on the Implementation of a Schoolwide Intervention to Promote Students' Social, Emotional, and Academic Learning // CHILDREN & SCHOOLS Том: 38 Выпуск: 2 Стр.:81-88 Опубликовано: APR 2016 <http://webofscience.com>
4. Xudayberdiyeva Janona. "Ta'limda individuallashtirish g'oyasining rivojlanish genezisi". <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467003>.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ta'lim tizimi zimmasiga yuklatilayotgan zamonaviy talablar uni rivojlantirishda ishtiqlik yo'nalish sifatida individuallashtirishning ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Chunki, individuallashtirish ta'lim amaliyotining bosh vazifalaridan biri bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish, faoliyatini ongli tushunish va o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Shunga mutanosib ravishda, pedagogika nazariyasi va amaliyotida ham individuallashtirish g'oyasining paydo bo'lishi ta'lim jarayonida shaxsning individual xususiyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatini inobatga olish va shu asosda o'qitish usullarini tanlash zaruriyatining vujudga kelishi bilan bog'liq. Maqolada berilgan manbalardan Oliy o'quv yurtida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

РЕЗЮМЕ

В данной статье современные требования, предъявляемые к системе образования, все больше повышают значимость индивидуализации как перспективного направления ее развития. Потому что индивидуализация позволяет развивать человеческий капитал, что является одной из основных задач образовательной практики, создавать необходимые условия для осознанного понимания деятельности и проявления своего потенциала. Соответственно, появление идеи индивидуализации в теории и практике педагогики связано с необходимостью учитывать в образовательном процессе индивидуальные особенности, возможности, интересы и способности человека и выбирать методы обучения, основанные на этом. Ресурсы, приведенные в статье, могут быть использованы при преподавании профильных предметов, преподаваемых в вузе.

SUMMARY

In this article, the modern requirements imposed on the educational system are increasingly increasing the importance of individualization as a promising direction in its development. Because individualization allows for the development of human capital, which is one of the main tasks of educational practice, the creation of necessary conditions for the conscious understanding of activities and the manifestation of one's potential. Accordingly, the emergence of the idea of individualization in the theory and practice of pedagogy is related to the need to take into account the individual characteristics, opportunities, interests, and abilities of a person in the educational process and to choose teaching methods based on this. The resources given in the article can be used in the teaching of specialized subjects taught at the Higher Education Institution.